

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

XX ASR TURKIY XALQLAR SHE‘RIYATIDA VATAN QADRIYAT SIFATIDA

Munisjon HAKIMOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292229>

Annotatsiya. Maqolada turkiy xalqlarning XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshi she‘riyatida vatanparvarlik qadriyat sifatida tahlil etilgan. Bu xalqlar she‘riyatida vatanparvarlik makon va tuzum jihatidan farqlanishi misollar asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, vatanparvarlik, timsol, muallif, lirik qahramon, tabiat, millat, tarix.

Аннотация. В статье анализируется патриотизм как ценность в поэзии тюркских народов второй половины XX - начала XXI века. На основе примеров изучаются различия патриотизма в поэзии этих народов в пространстве и системе.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, символ, автор, лирический герой, природа, народ, история.

Abstract. The article analyzes patriotism as a value in the poetry of the Turkic peoples of the second half of the 20th century - the beginning of the 21st century. The spatial and systemic differences in patriotism in the poetry of these peoples are studied on the basis of examples.

Key words: Homeland, patriotism, symbol, author, lyrical hero, nature, nation, history.

Adabiyot, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotidagi aks etgan oliy qadriyatlardan biri Vatanparvarlikdir. Turkiy xalqlarning XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr she‘riyatiga nazar solar ekanmiz, Vatan, millat kabilar ioliy qadriyat sifatida kuylanganiga guvoh bo‘lamiz. Bu davr ijodkorlarining boshqa mavzudagi she‘rlarida ham Vatanparvarlik oliy qadriyat ekanligi sezilib turadi. Shoirlar bu mavzuda goh faxrlanib, goh kuyinib, goh hayratlanib, goh mushohada yuritib qalam tebratadi. Ularning nazdida Vatan otadek tabarruk, onadek mehribon. Ular yurtidan, eldan ayrilishni musibat deb biladi:

*Faqat ketsam sendan yiroq,
Boshga tushur achchiq firoq,
Hasratingda soch bo‘lur oq...
Bo‘g‘ar oylar, yillar meni,
Koyimasin ellar meni! [12:8]*

(Samad Vurg‘un)

Turk shoiri Fozil Husni Dog‘larja esa «Yurt» she‘rida tog‘- u toshlari qadrli bo‘lgan Vatandan ayrilishdek chorasiz dardiga onasidan chora topishni so‘raydi:

*Tog‘lar, toshlar boqar menga,
Men bu yerdan ketolmayman.*

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

*Dardimga chora top, ona,
Men bu yerdan ketolmayman.[16:76]*

Vatanning barcha gul-u daraxtlari, suvi, havosi lirik qahramon uchun qadri, ya’ni Vatan o‘z tabiati bilan qadriyat sifatida ko‘rsatilgan. Tabiat jismlarining (*tog‘lar, toshlar*) jonlantirilib, insonga xos qiyofa namoyon qilishi (*boqar menga*) lirik qahramonning Vatanga muhabbatini yanada bo‘rttirib ifodalagan. Dog‘larja she’ri lirik qahramoni Vatan sevgisini yurtida turib ifodalasa, Omon Matjon lirik qahramoni bundoy sevgini «Playnzlilarning antiqa irimi» she’rida o‘zga yurtda, ya’ni Amerikada turib tuyadi. Amerika do‘konlaridan biriga kirganda sotuvchi shoir qo‘liga igna tutqazib devordagi xaritani ko‘rsatadi va:

*– Sayyoh qaysi yurtga qaytmoqchi bo‘lsa,
O‘sha joyga, mana, igna qadasin![9:230]*

Mana shu oddiy detal to‘qqiz banddan iborat kattagina she’rga tayach – tugun vazifasini o‘tagan. Xo‘sh, qahramonimiz igna qadaydimi, yo‘qmi? Qadasa, nima bo‘ladi? Qadamasachi? Shoir igna qadashni Vataniga xiyonat deb biladi va taklifni rad etadi.

*Yurtimiz qalbini bir bor ko‘rsayding,
Nayzalar o‘rnini minglab bitmagan.
Doro, Iskandarlar tig‘urgan unga,
Endi men sanchishim go‘yo yetmagan.[9:230]*

Arablar-u Chingiz bosqilarida to‘kilgan qonlarda «Okeanlar kosadan chiqardi». «Hatto toj-taxt deb o‘z elin» ne-ne xonlar qon to‘kmadi bu yurtda. Shunday bag‘ri xun va yara yurtiga shoir qanday qilib igna sanchsin! Uzoqqa bormay Ikkinchi jahon urushini esga oling – «Gitler o‘zbek tuprog‘iga otmasa-da o‘q» jangga ketgan vatandoshlarimizdan kelgan «qo‘rg‘oshindan og‘ir qoraxatlardan» har bir oilaning bag‘ri kemptik. O‘quvchi endi bir to‘xtamga keladi: qahramonimiz ignani qadamaydi! Yo‘q, u ignani qadaydi va bunga tayinli asos topa oladi:

*Yurtga igna sanchmoq nechog‘lik og‘ir,
Lekin qaytib borish istagi zo‘rroq![9:231]*

Arablar-u Chngiz bosqiniga qarshi o‘n minglab askarlar jang qilgandir, toj-taxt talashlarida yuz minlab askrlar qubon bo‘lgandir, Ikkinchi Jahon urushida millionlab vatandoshlarimiz halok bo‘lgandir, lekin qaynoq qoni ularnikidan-da ustunroq jasorat kursatishga shay! Shuning uchun u Vataniga qaytisni, uni millionlab askarlarga ishonmasdan o‘zi himoya qilishni istaydi va buni o‘zi uchun oliy qadriyat deb biladi.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Omon Matjon she’rida Dog‘larjanikidek Vatan sevgisi aks etsa-da, sog‘inchga yo‘grilganligi bilan farqlanib turadi.

Yurtning, elning qo‘llovi Jamol Kamol she’riyatida yetimlik dardini ham aritishga qodir qadriyat sifatida ko‘rsatiladi:

*Otam diydorini ko‘rolmadim men,
Onasiz o‘ssam-da, bo‘lmadim yetim.
Onam deb yerimga erkalandim men,
Otam deb elim-la iftixor etdim.*

*Ko‘rsatmasin, agar bir kun beomon,
Yerimdan, elimdan ayirsa hijron,
Boshimga yiqilgan yetimlik tog‘i
Yakson etar edi meni shu zamon...[8:249]*

Sakkizlik hasbi hol xarakterida bo‘lib, shoirning yetimlikda o‘tgan bolaligiga ishora qiladi. Bola ota-onasi bilan baxtiyor ulg‘ayadi. Bu baxtiyorlik Jamol Kamolga nasib etmagan. Ammo bag‘rikeng millati, Ona Vatani uni bu musibatdan yiroqlashtirib, unga baxtiyorlik hissini tuydirgan. Yurtdan va eldan ayrilganda yetimlik uni «yakson etar edi». Bu she’rda shoirning Vatani, eliga muhabbati aytilmay turib, holat orqali ifoda etilgan. Vatandan, eldan yiroqlik uqubatini shoir «yetimlik tog‘i» birikmasi orqali anglata olgan, ya’ni holatni noodatiy tarzda aks ettirgan.

Turk shoiri Baxtiyor Genjamurod she’rida esa lirik qahramon Vatan osmonidagi qora kunlarni oyog‘iga sanchilgan tikan deb biladi. Ya’ni shoir uchun vujud va Vatan bir tushuncha:

*Yalang oyog‘imga sanchilsa tikan,
Tan og‘rib, qon ko‘pchib, ingranadi jon.
O‘zni sendan o‘zga sanamadim men,
Tanimsan, qonimsan, jonimsan, Vatan![1:3]*

Barcha xalqlarda bo‘lgani kabi turkiy xalqlar she’riyatida ham Vatanni ulug‘lash, uning tabiatidan zavqlanish, o‘tmishidan g‘ururlanish o‘rinlari salmoqli.

Atoqli ozar shoiri Samad Vurg‘un Vatani madh etarkan, Ozarbayjonning geografik qiyofasini kitobxon ko‘z o‘ngida akslantiradi:

*Ko‘p oshganman bu tog‘lardan,
Turna ko‘zli buloqlardan,
Tinglaganman uzoqlardan*

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Sokir Oraz ishvakorni,

Sinaganman do ‘st-u yorni.[3]

Inson qayerda tug‘ilib kamol topsa, o‘sha yer uning Vatani. U yer tog‘ bo‘lsa ham, bog‘ yoki cho‘l-u sahro bo‘lsa ham u bilan sevinadi, zavqlanadi. Jumladan, qozoq dashtliklarida yashagan O‘ljas Sulaymonov lirik qahramoni Vatanini yantog‘i, dashti, otlarning changi bilan sevadi, sig‘inadi:

Nebraskaga borar edim-u,

Sog‘inibman Vatanni, ukam,

Unda ham shu manzara va shu...

Vatanimga qaytaman, ukam.

Unda aday dashti bor, azal

Yantoq o‘sar, chimchir sovuq ham,

Ot bor, chang bor! Juda ham go‘zal!

Vatanimga qaytaman, ukam...[14:19]

Jamol Kamol ijodidagi «Eng buyuk tuproq», «Tun. Bog‘imda kezaman...», «O‘zbekiston tuni», «Buyuk trassa ilhomi», «Ufuqlar», «Tasavvur» kabi she‘rlarda O‘zbekiston tabiatiga xos daryolar, kengliklar, tog‘lar-u bog‘lar manzarasi aks etgan.

Turkiy xalqlar she‘riyatida vatavparvarlik qadriyat sifatida baholanar ekan, bu she‘riyat lirik qahramoni jon-jahdi bilan ona Vatanini asraydi, himoya qiladi. Jumladan, ozar shoiri Samad Vurg‘un ona yurtida chin do‘stlik, halollikni qadrllovchilar yashashini istaydi:

Aziz tutib, e‘zozlaylik chin do‘stlikning qadrini biz,

Jon tikaylik bu do‘stlikka, qardoshlikka har birimiz.

Nomus qilsin o‘z kunidan maslaksizlar, qalbi ko‘rlar,

Boqiy yashar bu Vatanda pokdomon-u toza tamiz.[12:14]

Shoirning «Bizning yoshlik» deb nomlanuvchi mazkur she‘ri marsh janrini yodga keltiradi. Vatavparvarlik mavzusidagi bu kabi she‘rlarning marshga xos «arxitetonikasining epik murojaat, chaqiriq, undash, tashviqiylik, shioriylik, tasdiqlash, keskin rad etish kabi priyomlar asosiga qurilishi, boshidan to oxirigacha ko‘tarinki, jangovor intonatsiyaning saqlanishi»[13:25] singari xususiyatlarda yozilishi Sobiq Ittifoq, jumladan, unga birlashtirilgan turkiy xalqlar adabiyotining o‘ziga xos mezonidir. Bu hol Ittifoq hududiga tegishli bo‘lmagan turk adabiyotida deyarli uchramaydi.

Vatavparvarlikning yuksak qadriyat sifatidagi ifodasini O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she‘riyatida ham kuzatish mumkin. Uning «Men nechun sevaman

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘zbekistonni» she’ri lirik qahramoni vatanparvarlikni o‘ziga xos ifodalaydi. Lirik qahramon Ona Vatanning o‘zga yurtlar bilan qiyoslar ekan, u yurtlarning ham go‘zalligini, qadrliligi ekanligini inkor etmaydi. Aksincha, o‘zga yurtlarda ham imkoniyatlar kam bo‘lmagan holda Ona Vatanning – O‘zbekistonning qadrliligi ekanligini ta’kidlaydi. Bu qadr – uning shu Vatanda tug‘ilganida, kamol topganligida. Shoir «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?» – deya saviliga javob izlarkan, sevgiga moddiy asos bo‘ladigan javoblardan chekinadi. Ya’ni Vatanga muhabbatning sababini tuyg‘u – Vatan tuyg‘usi bilan bog‘laydi:

Yurtim, seni boyliklaring-chun

Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo! [11:44]

Atoqli adib Odil Yoqubov A.Oripov she’rlari haqida fikr yuritarkan ekan: «Ona Vatan Abdulla ijodining bosh mavzui. Vatanni bu qadar jondan sevish, shu sevgiga munosib tarzda sharaflash mumkinligini hali-hozirgacha boshqa birov bunchalar yorqin namoyon etganicha yo‘q...» [10:5], – deya e’tirof etadi.

Jamol Kamol lirik qahramoni o‘zini Vatanning bilaklari kuchga to‘lgan, yurtning koriga loyiq o‘g‘loni deb biladi. Tomirlarida qon Jayhun – Amudaryo yanglig‘ jo‘sh uradi. Endi u hayrat-u g‘ayrat bilan qardosh ellarning ham yumushlariga yelka tutmoqchi:

Sening osmoningdan sog‘inch bilan mast,

Qadrdon ellarga tashlasam nazar,

«O‘g‘lim!» – deb chaqirar mo‘ysafid Kavkaz,

«O‘g‘lim!» – deb chaqirar daryoyi Hazar... [8:73]

Qayd etish kerakki, turkiy xalqlar she’riyatida lirik qahramon insoniyatni Vatanparvarlikka, ezgulikka, ahilikka chorlar ekan, bu amallarni bajarishda ona yurti bilangina cheklanib qolmaydi. Ya’ni Vatan kengroq mohiyat kasb etib, qo‘shni va qardosh yurtlarni, qolaversa, butun yer sharini ona Vatanidek himoya qilish lozimligini aytadi. Samad Vurg‘un:

Va yana insonning xayol sarvari

Uchar fazolar-u dengizlar sari.

Sen ey, saodatning go‘zal sahari,

Olqishla insonning orzuli yo‘lin,

Yetkaz Yer yuziga jasorat qo‘lin, [12:43] –

deya yer yuziga jasorat tilasa, Jamol Kamol lirik qahramonining tasvvuri uzoqlarga nigoh tashlab, Rus, Baltika, Bolqon o‘lkalari, Dnepr, Dunay daryolari, ulardan osha Istanbul, Parij, Qohira, Rim shaharlari va Atlantika okeanining posboni bo‘lishni

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

istaydi. Shoir *Vatan* so‘ziga yanada kengroq ma’nolarni yuklab, butun yer-u osmonni – borliqni «*mening Vatanim*», deydi:

*Shu Osmon, Shu Zamin – mening Vatanim,
Shu Osmon, Shu Zamin – mening Xudoyim.
Bunda begona yo ‘q, barchasi manim,
Mening Amerikam, mening Xitoyim!..[8:74]*

Shoir butun zaminni o‘z Vatani deb biladi. She’rda ilgari surilayotgan fikr bugungi dunyoga qutqu solayotgan qutblashish, dunyoni bo‘lib olish, tarafkashlik, guruhbozlik siyosatiga qarshi zaruriy qalqon vazifasini o‘taydi. Insonning faqatgina o‘zi mansub bo‘lgan mamlakat tinchligini o‘ylashi, sarhadlardan tashqaridagi yurtlarning tashvishlariga bee’tibor bo‘lishi kaltabinlikdir. Shoir dono xalqimizning «Qo‘shning tinch – sen tinch» maqoli mohiyatida mavjud fikrni she’riyatiga singdiradi. Insoniyat uchun Yer shari umumiy ekan, muammolar ham yurtlarga ayro-ayro taqsimlangan emas. Insoniyatga ofat keltirayotgan ekologik, siyosiy va iqtisodiy muammolar bu fikrlarni to‘la tasdiqlaydi. Bu ofatlarga qarshi birgalikda, bahamjihat kurashish talab qilinadi. Va ayni damda barcha xalqlar baxtiyor yashashga haqli:

*– Bashariy avlodining barchasi – inson,
Vatan hammamizga – Shu buyuk Zamin!..[8:74]*

Shoir «Vatan» tushunchasining mohiyatini ochishda turli usullardan foydalangan. Jumladan, «Tasavvur» she’ridagi kabi Ona yurt orqali dunyoni Vatan deb bilish, uni ko‘z qorachig‘idek asrash lozimligi boshqa sakkizligida ochib berilgan. Ifodaning dialog orqali berilgani fikrning vaznga solinishida o‘ziga xoslikni ta’minlagan:

*– Ona O‘zbekiston, sendan so‘rayman,
Nelarni o‘ylaysan Shu farahli tun?
– Jumla mamlakatga non bersam deyman,
Kiyintirsam deyman uni bus-butun...*

Ozar shoiri Samad Vurg‘un ona xalqi baxtini qardoshlarning tinch va baxtiyor yashashisiz tasavvur qilolmaydi:

*Sensan, Vatan yorug‘ yuzim,
Tingla manim yurak so‘zim.
Qardoshlikda baxt yulduzing.
Gullay bergil dorilamon
Ozarbayjon, Ozarbayjon.[3]*

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bunday she’rlarda lirik qahramonning Vatanga muhabbati ona yurti orqali jahonga muhabbat darajasiga ko‘tariladi, demakki, uning Vatani sarhadlari kengayadi.

Turkiy xalqlar she’riyatida Vatan obraz darajasiga ko‘tarilar ekan, lirik qahramonning u bilan suhbatlashishi hamda Vatan tilidan uning insonga cheksiz mehrining ifodalanishi ta’sirchanlikni oshiradi. Shoirlar Ona Vatanining, u orqali o‘z elining go‘zal ta’riflarini keltiradi: ular faqat ezgulik tarafdori, savob ishlarga qodir, mehrda tengsiz.

Yuqoridagi she’rlarda shoirlar Ona yurtida turib butun zaminga omonlik tilagan bo‘lsalar, ayrim she’rlarida, aksincha, jahonni dur bilib, Ona yurti durdona deb biladilar. Ya’ni she’rlarda ifodada xususiylikdan umumiylikka, umumiylikdan xususiylikka nigoh tashlanishi bilan o‘zaro farqlanib turadi, ya’ni o‘z yurtini barcha yurtlardan azizroq biladi. Quyosh, osmon, zamin hamma yurt uchun bir, lekin lirik qahramon Vatanning o‘z porloq quyoshi, o‘z musaffo osmoni, o‘z bebaho zamini bo‘lishini orzu qiladi. Yaxshi kunlar bo‘lganidek baxtsiz kunlar ham bor, albatta. Bunday she’rlar so‘ngida lirik qahramon Vatanga yana ezgudiklarni sog‘inadi. Bayramlari ko‘p bo‘lishini, sohrolari, vodiylar-u daryolari nasib etishini so‘raydi:

*Nurli-nurli ayyomlaring bo‘lib tursin,
Nasib etsin senga oltin sahrolaring,
Ovozingga to‘lib tursin, to‘lib tursin,
Yurtim, chaman vodiylaring, daryolaring...[8:172]*

«Nasib etsin» jumlasida mustabidlik davri og‘riqlariga ishoradir. «Oltin sahrolaring» birikmasi ikki ma’nolilikni bergan: sarg‘ayib yotgan sahrolar, qimmatbaho sahrolar. Mustaqillik istagi «Ovozingga to‘lib tursin» birikmasi ko‘magida anglatilgan. Shoir Vatan tavsifida o‘zgalarga ergashmaydi, ifodasi o‘ziga xosdir.

Shoirning boshqa sakkizligida esa tabiiy jarayonlar insoniy illatlarga ko‘chirilganligiga guvoh bo‘lish mumkin:

*Ona Yer, har kuni olam ufqiga
Ko‘z yoshing oqizar bahri ummonlar...
Bahri ummon bo‘lib qo‘zg‘almas nega
Senga banda bo‘lgan tirik insonlar?*

*Ona Yer, ona Yer, boshingda tutun,
Bag‘ringdan otilar o‘tli vulqonlar...*

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘tli faryodingdan bir kunmas-bir kun

Tikka qo‘zg‘almasmi o‘lik insonlar?..[8:231]

Bahri ummonlarda oqayotgan suv emas, Ona Yer ko‘z yoshlari, tutunli vulqonlar Ona Yerning bag‘ridan otilayotgan o‘tli ohlari. Ritorik so‘roq orqali insoniyatni sergaklikka, ogohlikka chorlanish bor. She’rda tajohuli orif san’ati orqali millatlararo nizolarga, shafqatsizlikka barham berilishi, da’vat etilishi, «*o‘lik insonlar*»ning uyg‘oqlikka chorlanishi alam bilan ifoda etilgan. Ya’ni lirik qahramon tilidan Vatanga, Ona sayyoraga mehrlil bo‘lish borasida «suhbatdoshini o‘ziga fikrdosh qilish, o‘ziga nisbatan xayrixohlik, rozilik hislarini uyg‘otish maqsadida» [6:31] ritorik so‘roq qo‘llangan. «*Tikka qo‘zg‘almasmi o‘lik insonlar?..*» satrida «qiyomat» so‘zi qo‘llanmasa-da, dunyoning barbod bo‘lishi mumkinligiga, oxirzamon holatiga ishora bor. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, Jamol Kamolning bunday she’rlariga xos jihatlardan biri shundaki, shoir bayon qilmaydi, aytmaydi, tasvirlash yordamida she’rxonida ma’lum xulosani yuzaga keltiradi.

Baxtiyorlik emas, balki o‘kinch ohangida, insoniyat tarixiga, hayotiga xos og‘riqli jihatlarni aytish orqali kitobxonda Vatanga muhabbat uyg‘otish g‘oyasi turkiy xalqlarning bu mavzudagi she’riyatida ko‘plab uchraydi.

Oq

Qora

Sariq

Butun insonlar qardoshim[16:130] –

deya insoniyatni totuvlikka undagan turk shoiri Nevzat Ustyun o‘zini dunyo tuprog‘ida ko‘kargan daraxt deb biladi. Lekin bu kabi «daraxt», ya’ni turkiyalikka zarra ozor yetqazilishiga («qonay ko‘rsa bir turkiyalikning barmog‘i») qarab turolmaydi:

Oti qayergacha borsa borsin

Javobgari menman.[16:130]

Turkiy xalqlar ijodkorlarining yuqorida tahlil etilgan she’rlarda o‘kinch taajjubli bo‘lsa, quyidagisida kuzatishlar xulosasi sifatida jarang sochadi:

Seni yondirdilar, seni sotdilar,

Necha bor qatlingga ichdilar qasam.

Va lekin o‘zlari qonga botdilar,

Va lekin o‘zlari topdilar barham.

Turk shoiri Rifat Ilgazga ko‘ra vatandoshining Qora dengizni pisand qilmay, undagi balq ovidan zavq olmay tashlab ketishi unga piyozni ezg‘ilab tutgandek

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

tuyuladi. Piyozning achchiqligi inobatga olinsa, she’r lirik qahramoni bu holdan ko’zida yosh bilan qalbi og’rishini anglash mumkin:

O’tib ketsang Bo’g’ozdan

Bir burda non izlab

Ezib yuborasan yer sharinqisimingda piyoz kabi...[16:115]

Fozil Husni Dog’larja esa yurtning o’kinchli dardlarini Marsdan kelgan odamga so’zlaydi:

Istasang men senga o’z Vatanimdan

So’zlay ko’rgan-bilganimdan to’g’ri

Mana bu xasis boy mana bu ochko’z kimsa

Bunisi buzuq xotin u yodda qo’rqoq o’g’ri

Ko’rib turibsanki ahvolimiz yaxshimas sira[4]

She’r beixtiyor Abdurauf fitratning «Mirrix yulduziga» se’rini yodga soladi. Har ikki she’rda ham lirik qahramon o’z yurtining dardlarini Mirrix – Marsga to’kib slogan. Mars mifologik tasavvurga ko’ra urush homiysi. Fitrat va Dog’larjaning o’tli ohlari oldida Marsdagi olovli po’rtanalar ham ojiz.

Uyg’ur shoiri Abdurahim O’tkir lirik qahramoni esa Vatam va millat borasidagi achchiq haqiqatlarini raqib (xoin)ga tog’ridan to’g’ri aytib solidi:

Xarjlang, xoinlar, xarjlang, bu elning molini xarjlang,

Kamdek tuyulsa agar, olib siz jonini xarjlang.[2]

Vatan sanalmish ona Zaminni qonga botirganlar aslida o’zlariga qasd qilgan bo’ladilar. Shoirning sakkizliklari ixcham shaklda jahon taqdiriga daxldor muhim xulosalarni bir el she’rxoniga emas, insoniyatga uqtiradi.

Sen esa jahonda sobitsan hamon,

Sobitsan, vatanlik sharafing oqlab.

Kelganlar holiga boqasan hayron,

Ketganlar yodini yodingda saqlab...[8:237]

(Jamol Kamol)

She’rning birinchi bandi o’tmishning ixcham ko’zgusi. U tafsilotlarsiz, yirik davrni qamrovchi umumlashma chizgilardan iborat. Bosqinchilar va fitnakorlar xiyonatchilar ko’magi bilan Buxoro, Urganch, Samarqand kabi shaharlarga o’t qo’ygani, Cho’lpon, Qodiriy, Fitrat singari yurt fidoyilari sotqinliklar qurboni bo’lganligiga tarix guvoh. Biroq Kayxusravdek bosqinchilar va sotqinlarning o’zlari qonga bo’ktirildi. Jumladan, Qoracha Hojib 1219 yilda Chingizxon O’troga bostirib kelishida [5:67], Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Jaloliddin Manguberdi Shimoliy

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Hindistonda barpo etgan davlatining tanazzulida [5:74], shuningdek, Sulton Jaloliddinga qarshi ukasi G‘iyosiddin Pirshoh [5:76], bosh vazir Sharofulmulklarning [5:77] qilgan xiyonatlari tariximizning qora sahifalaridir. Ammo ona yurt taraqqiyotda davom etmoqda. Ta’kidlaymizki, yuqoridagi satrlarni o‘qib, o‘zbek she’rxoni shunday xulosa qiladi. Ammo bu sakkizlikni o‘qigan har bir xalq o‘z tarixiga bog‘liq shunday holatlarni ko‘z o‘ngidan o‘tkazadi. Chunki she’r umuminsoniy mavzuni ko‘tarib chiqa olgan.

Vatandan ayro yashab yurt sog‘inchi kuylangan she’rlar turkey xalqlar adabiyotida ko‘plab uchraydi. Zahiriddin Muhammad Boburning:

*Bu Hind eri hosilidin ko‘p ko‘ngil oldim,
Ne sudki, bu er meni dilgir qilibtur.*

*Sendin bu qadar yiroq o‘lmadi Bobur,
Ma‘zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur[7:51], –*

tarzidagi baytlarini yodga keltiring. Yoki Furqatning:

*Manam sho‘rida bulbul bo‘stonidin adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la qondur dilsitonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat xonumonimdin adashganman,
Va yo bir murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman[15:75], –*

singari misralarida Vatanga intilayotgan lirik qahramonning dardli holati tasvirlangan. Jamol Kamolning quyidagi sakkizligi ham ayni Shu – Yurt sog‘inchi mavzusida. Turli o‘lkalarni kezib zavq olarkan, lirik qahramon tog‘larni oshganda Yurti unga tog‘lardan-da baland, dengizlarga boqqanida esa ufqdan-da olis yulduz, ammo yoniq yulduz bo‘lib ko‘rinadi.

*Yurdim sayohatlar sehriga qonib,
Dengizlarda suzdim, bitdi armonim.
Dengiz ufqida ham yulduzday yonib,
Sen menga ko‘rinding, O‘zbekistonim...[8:243]*

Rifat Ilgaz ham Turkiya tabiatining zavqli kartinalarini chizish orqali yurtni tashlab ketgan Vatandoshi qalb muzlarini eritishga, ona yurtning qadriga yetishga chorlaydi:

*Sen oppoq uskurum balig‘ini sog‘inarsan
Chunki ko‘z ochgansan po‘yroz shamolida
Lados shamolida ulg‘aygansan chag‘alaylar bilan*

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ko'z o'ngingda miltirar Keremiye va Sinop mayoqlari [16:115]

Mazkur she'rlar Bobur va Furqat she'rlariga esh mavzuda bo'lsa ham shakl va uslubda ulardan ajralib turadi.

Xullas, turkiy xalqlar zamonaviy she'riyatini kuzatgan o'quvchi unda Vatan qadriyat sifatida kuylanganligiga amin bo'ladi. Ijodkorlar bu mavzuda turli janrlarda qalam tebratganlar va janr tabiatidan kelib chiqib, ba'zan Vatanni ta'riflasalar, ba'zan u bilan muloqotga kirishadilar, ba'zan o'kinsalar, ba'zan u bilan g'ururlanadilar.

Shoirilar ijodining dastlabki namunalarida Vatan va uning tabiatidan hayratlanish kuzatilsa, ular ijodining keyingi davrlariga xos she'rlarda mavzuga falsafiy mushohada yuritish bilan yondashilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtiyor Genjamurod. Yurakning o'rtli osmoni. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/xx-asr-uygur-sheriyati.html>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/samad-vurgun-sherlar.html>
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/fozil-husni-doglarja-sherlar.html>
5. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (7-sinf uchun maktab darsligi). – T.: Sharq, 2017.
6. Абдурахмонов Ғ. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. . – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
7. Бобур. Танланган асарлар. . – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
8. Жамол Камол. Сайланма. VII жилдлик. I жилд. . – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.
9. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. – Тошкент: ҒАҲН, 1995.
10. Орипов А. Сайланма: Муножот: Шеърлар. – Т.6 ҒАҲУР Ғулом номидаги НМИУ, 1992.
11. Орипов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: ҒАҲН. 2000.
12. Самад Вурғун. Юракдаги шеър. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.
13. Ўзбек совет поэзияси жанрларининг таркиб топиши. – Тошкент: Фан. 1983.
14. Ўлжас Сулаймонов. Айланайин. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1987.
15. Фурқат. Танланган асарлар. II томлик. II том. . – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959.
16. Ҳозирги замон турк шеърляти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980.